



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'YINLI METODLARDAN FOYDALANISH

Savranboyeva Shaxriniso Xosilboy qizi

*Samarqand viloyati chet tillar institut Filologiya va tillarni o'qitish:ingliz tili 1-kurs
2414-kurs talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'yinli metodlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. O'yinli yondashuvlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekcha: o'yinli metod, boshlang'ich ta'lif, ingliz tili, motivatsiya, interaktiv dars

Аннотаци: В статье рассматривается роль игровых методов в обучении английскому языку в начальных классах. Игровые подходы повышают мотивацию учащихся и делают уроки более интересными и эффективными.

Ключевые слова: игровые методы, начальное образование, английский язык, мотивация, интерактивный урок

Annotation: This article analyzes the role and importance of game-based methods in teaching English to primary school students. Game-based approaches increase student motivation and make lessons more engaging and effective.

Keywords: game-based method, primary education, English language, motivation, interactive lesson

Kirish: Zamonaviy ta'lif tizimida chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini o'rgatish dolzarb masalalardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish muhim bo'lib, bunda o'yinli metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o'yinli metodlarning mohiyati, ularning afzalliklari va qo'llash usullari haqida so'z boradi.

1. O'yinli metodlar tushunchasi

O'yinli metodlar — bu o'quvchilarni faol jalb etish, ularning qiziqishini oshirish va dars jarayonini jonlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar tilni tabiiy va erkin muhitda o'zlashtiradilar.

2. Boshlang'ich sinflar uchun mos o'yin turlari

Boshlang'ich sinflar uchun eng samarali o'yinlar quyidagilar bo'lishi mumkin: Leksik o'yinlar: Yangi so'zlarni o'rgatish va mustahkamlash uchun ishlataladi. Masalan, "Memory cards", "Word Bingo", "Match the picture and word" kabi o'yinlar orqali o'quvchilar so'z boyligini oshiradi.

Tinglab tushunish (listening-based) o'yinlari: Inglizcha gap yoki topshiriqlarni eshitib bajarish orqali o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlanadi. Masalan, "Simon Says" yoki "Listen and point".



Talaffuzni yaxshilash o‘yinlari: “Tongue twisters”, she’rlar va qo‘shiqlar orqali talaffuz ustida ishlanadi. Ayniqsa “song games” (qo‘sish o‘yinlari) bu jarayonda foydalidir.

Rol o‘ynash (Role play) o‘yinlari: O‘quvchilarga muayyan vaziyatda (do‘konda, mактабда, restoranda) inglizcha muloqot qilish imkonini beradi. Bu o‘yinlar muloqotga asoslangan til o‘rganish uchun juda muhimdir.

Harakatli o‘yinlar (Action-based games): “Run to the word”, “Jump on the color” kabi o‘yinlar bolalarning harakatga bo‘lgan ehtiyojini inobatga olgan holda, til o‘rganishni jismoniy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi.

Flashcard o‘yinlari: so‘zlarni eslab qolishga yordam beradi.

Role play (rolli o‘yinlar): muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Memory games: eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

Songs and chants: talaffuzni yaxshilaydi va so‘z boyligini kengaytiradi.

3. O‘yinli metodlarning afzalliklari

O‘yinli metodlar pedagogik jihatdan quyidagi ustunliklarga ega: Motivatsiya va qiziqishni oshiradi: O‘quvchilar darsni zerikarli vazifalar deb emas, balki zavqli faoliyat deb qabul qiladi.

Emotsional fondni yaxshilaydi: O‘yinlar o‘quvchilarning o‘zini erkin his qilishiga yordam beradi, stress va qo‘rquv kamayadi.

Ijtimoiylashuvni ta’minlaydi: Guruhli o‘yinlar orqali o‘quvchilar bir-biri bilan hamkorlik qiladi, bu esa til muhitini yaratadi.

Ko‘p hissiyotli o‘rganishga yordam beradi: Eshitish, ko‘rish, harakat qilish orqali bilim chiqurroq o‘zlashtiriladi.

Ijodkorlikni rivojlantiradi: Bolalar yangi rollar, so‘zlar, vaziyatlar orqali til bilan erkin ishlash imkoniga ega bo‘ladi.

4. O‘yinli metodlarni darsda qo’llashning samaradorligi

O‘yinlardan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik bosqichlarga rioxasi qilish tavsiya etiladi: Tayyorlov bosqichi: Dars mavzusi va o‘quvchilarning yoshiga mos o‘yin tanlanadi. Maqsad aniqlanadi. Ko‘rsatma berish: O‘qituvchi o‘yinning qoidalarini aniq va tushunarli tarzda tushuntiradi. O‘yin jarayoni: O‘qituvchi faol kuzatuvchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida qatnashadi. Tahlil va baholash: O‘yindan keyin o‘quvchilar qilgan xatolar ko‘rib chiqiladi, fikr-mulohazalar bildiriladi. O‘qituvchi dars mavzusiga mos o‘yin tanlaganida va uni maqsadga yo‘naltirib tashkil qilganida o‘quvchilar faol ishtirot etadi va bilimni ongli ravishda o‘zlashtiradi. Masalan, yangi so‘zlar o‘rganishda “word bingo” yoki “matching games” kabi o‘yinlar katta samaradorlik beradi.

5. O‘yinlar orqali erishiladigan natijalar : O‘yinli metodlardan foydalanish natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin: So‘z boyligi va talaffuzda sezilarli o‘sish; Muloqotga kirishishda ishonch hosil qilish; Darsga nisbatan ijobjiy munosabat; Faol ishtirot va ijodiy fikrlashning rivojlanishi; O‘quvchilarning darsga muntazam va faol qatnashuvi.

Xulosa



O‘yinli metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, til muhitini yaratadi va o‘quv jarayonini jonlantiradi. O‘yinlar orqali bolalar ingliz tilini “o‘rganish” deb emas, balki “yoqimli mashg‘ulot” deb qabul qilishiadi. Bu esa ta’limning asosiy maqsadlariga samarali yetib borishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
2. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2006). *Games for Language Learning*. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Longman.
4. Nunan, D. (2015). *Teaching English to Young Learners*. Anaheim University Press.
5. Cameron, L. (2001). *Teaching Languages to Young Learners*. Cambridge University Press.

